

23 YILLIKKA 23-MEDAL

Yaqinda Vyetnamda kimyo fani bo'yicha Butunjahon olimpiadasi bo'lib o'tdi. Unda Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi 1-akademik litsey o'quvchilari ham ishtirok etishdi. Dunyoning 77 ta mamlakatidan kelgan 300 nafardan ortiq bilimdonlar ishtirokidagi bellashuvda Behzod Boltayev oltin, Javlon

Muhsinov kumush, E'zoza Isayeva hamda Bobir Boltayev bronza medallari bilan taqdirlanishdi. Darvoqe, mazkur akademik litsey o'quvchilari o'tgan besh yil davomida nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirok etib, 23 ta medalni qo'lga kiritishdi. Bilimdonlarning bu yutug'i Mustaqilligimizning 23 yilligiga munosib sovg'a bo'ldi.

www.tongyulduzi.uz



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:34 (66991)

2014-yil

25-avgust

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

YAGONASAN, MUQADDAS VATANIM, SEVGI VA SADOQATIM SENGGA BAXSHIDA, GO'ZAL O'ZBEKISTONIM!

Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi «Lochin» oromgohida «Yurt kelajagi» ko'rik-tanlovining respublika bosqichi bo'lib o'tdi. «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashabbusi bilan har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan ko'rik-tanlovda respublikamizning turli hududlaridan 15 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan eng iqtidorli o'g'il-qizlar ishtirok etdi.

IQTIDORLILARNI BIRLASHTIRGAN TANLOV

Ularning arxitektura va liboslar dizayni, axborot texnologiyalari va texnik ishlanmalar, an'anaviy va amaliy san'at, ratsionalizatorlik hamda iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar, adabiyot va jurnalistika yo'nalishlari



bo'yicha bilimlari sinovdan o'tkazildi.

Bir hafta davom etgan tanlovda o'n olti nominatsiya bo'yicha uch nafardan

– jami 48 nafar intellektual salohiyatli yoshlar g'oliblikni qo'lga kiritib, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

«ENG ULUG', ENG AZIZ»


Respublika ko'rik-tanlovi g'oliblari aniqlandi

Shu kunlarda Vatanimizning shonli tarixidagi buyuk va o'chmas sana – O'zbekiston Mustaqilligining 23 yilligini keng nishonlash arafasida O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar hamkorligida «Eng ulug', eng aziz» respublika ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

G'oliblar orasida gazetamiz hamkori – «Tasvir» sho'ba korxonasi dizayneri Nizom Sultonov ham bor. Nizom akangiz Mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarida erishilgan yutuqlar hamda «Sog'lom bola yili»ga bag'ishlab tayyorlangan dizayn ishlari uchun ko'rik-tanlovning «Tasviriy san'at, foto asarlari va dizayn ishlari bo'yicha» 1-o'ringa loyiq deb topildi.

«Tong yulduzi» gazetaxonlari nomidan uni ushbu yutug'i bilan tabriklaymiz!

Sh. MAXMADIYEV olgan suratlar



Ushbu sonda:

ISTIQLOLNING YORQIN YO'LLARI

2-bet

«YER SHARINING BIRINCHI SUVRATI»

3-bet

ONA YURTIM – OLTIN BESHIGIM

6-bet

ISTIQLOLNING YORQIN YO'LLARI

To'ychi muallim bizlarga tarix fanidan saboq berardi. Ellik yildan ziyod vaqt mobaynida bir maktabda mehnat qilgan bu ustozni barcha birdek yaxshi ko'rardi. Ustozning har bir sabog'idan so'ng o'zimizni ancha ulg'ayib qolgandek his etardik.

Ayniqsa, buyuk ajdodlarimizning ozodlik yo'lidagi jasoratlarini gapirganlarida dillarimiz faxr-iftixorga to'lardi. Shu bois bo'lsa kerak, maktabimizdan tarixchilar ko'p chiqqan. To'ychi muallim qaysidir oliy o'quv yurtiga o'qishga kirgan shogirdlarini uyiga borib alohida tabriklab kelardi. U kishi bu odatlarini nafaqaga chiqqan paytida ham davom ettirdi.

Ayni chog'da nuroniy yoshdagi ustozni biz shogirdlar ham tez-tez yo'qlab turamiz. Ayniqsa, bayramlar arafasida ustozning xonadoni har qachongidan ham gavjum bo'ladi. U kishi bilan ko'rishganda, albatta, yaxshi bir gapning ustidan chiqishimiz tayinligi uchun u xonadonga talpinganimiz-talpingan. Bu gal ham shunday bo'ldi. Ustoz meni quvonch bilan qarshi oldi.

– Ishlar qalay, nima yangiliklar? – dedi biz uchun qadrdon bo'lib qolgan savolini takrorlab.

– Yaxshi yuribman, – dedim kulib.

Ustozning yuziga tabassum yoyildi.

– Yurish emas, uchish kerak bu zamonda. Qara, hayot qanday tezlashib ketdi. Biz tarixi buyuk xalq, ajdodlarimiz ilm-fanda, bunyodkorlikda dunyoni hayratga solgan, vaqti kelib bu xalq dunyoni yana hayratga soladi, deganim esingdami? O'sha kunlar keldi. Bunday dorulamon kunlar bizga ham nasib etdi. Bu kunlarning qadriga hammamiz yetishimiz kerak.

Ustoz har galgidek jo'shib ketib, yaxshiroq o'rashib oldi.



– Oilamizda yaxshi bir an'anani yo'lga qo'yganimiz. Har yili bayram arafasida shahrimizdagi bunyodkorlik ishlarini tomosha qilishga nevaralarimni

olib chiqaman. Bolalar o'z yurtidan g'ururlanishini xohlayman. Ular bilan qalbimiz hayrat va havasga to'lib endigina sayohatdan kelib turgan edik.

Yana bir gap. Nabiralirim bir kunlik sayohatlarini haqida menga insho yozib topshiradilar. Vatanni sevaman, degan odam uning tog'i-yu bog'i, cho'li-u sahosigacha borib ko'rishi kerak. Qurilish ishlari bitishi bilan G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temiryo'li. ko'rib keldik. Uйда o'tiraverasizlarmi, deb bir-ikkita chollarni ham birga olib bordim. Endi ular ham o'rganib qolishdi. Yurtimizda biz bormagan joy qolmadi. Qayerda bo'l-maylik, kishi ko'ngliga yorug'lik soluvchi bunyodkorlik ishlarini ko'rib, ko'nglim kayraydi. Yasharib ketgandek bo'lasan kishi.

Ustoz bilan uzoq gurunglashdik. O'rimdan qo'zg'alanimda hovli suv quygandek jim-jit edi. Nabiralir bugungi sayohat haqid insho yozishni boshlagan, shekili.

Yusuf ABDULLAYEV

Istiqlolimizning 23 yilligini nishonlash arafasida respublikamizning turli viloyatlaridan o'quvchilar azim Toshkentga kelib, poytaxt ko'chalariga sayohat uyushtirishmoqda. Hayrat va hayajonini yashirolmagan o'g'il-qizlar tahririyatimizga tashrif buyurishni ham unutilmadi. Ana shunday tengdoshlaringizdan Surxondaryo viloyati, Qiziriq tumanidagi 49-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi Yulduz Xo'jamurodova hamda Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatining 8-«A» sinf o'quvchisi Feruza Egamberdiyevaning dil so'zlarini e'tiboringizga havola etamiz.

YURT CHIROYIGA MAFTUNMAN



Yulduz XO'JAMURODOVA maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga, ona tili va adabiyoti, bichish-tikish, ingliz tili to'garaklarining faol a'zosi. Maktabda o'tkazilib kelinayotgan «Kimning xati chiroyli?», «Ifodali o'qish», «Balli, qizlar!» kabi ko'rik-tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallagan.

Yulduzning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri – kitob mutolaa qilish. Ayniqsa, shoirlardan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusufning she'rlarini sevib o'qiydi. O'zi ham tevarak-atrofnı kuzatib, Surxon vohasining go'zal tabiatidan ilhomlanib, shahar va qishloqlarda amalga oshirilayotgan

bunyodkorlik ishlaridan zavq olib, she'rlar yozib turadi. Uning she'rlari tez-tez tuman gazetasida chop etiladi.

– Eng ulug', eng aziz bayramimiz arafasida otam bilan Toshkentga kelib aylandik. Keng, ravon ko'chalar, ko'p qavatli muhtasham binolarni ko'rib, ko'zim quvnadi, – deydi Yulduz to'lqinlanib. – Mustaqillik maydoni, Amir Temur xiyoboni, uning yaqinida qad rostlagan Anjumanlar saroyi o'z go'zalligi bilan meni maftun etdi. Ayniqsa, poytaxtdagi rang-barang, musiqali go'zal favvoralar, ularning tungi ko'rinishi nihoyatda beqiyos manzara kasb etadi. Bu yerda ko'plab taassurotlar oldim, maktabimga borganimda ko'rganlarim haqida dugonalaringam ham so'zlab beraman.

BONU

MENDAN BAXTLI INSON YO'Q,

deydi samarqandlik tengdoshingiz

Feruza EGAMBERDIYEVA.

– Yurtimizda bayram. Ushbu ulug' ayyom, ayniqsa, biz bolalarni ko'proq quvontiradi. Mustaqilligimizning 23 yilligi yaqinlashgan sari qalbimda faxr va iftixor tuyg'usi jo'sh uradi. Yurtimiz ozod, obod, oilalarimiz

tinch, xotirjam. Bu chinakam baxt emasmi?!

Men shu muqaddas diyorda tug'ilganimdan, yaxshi insonlar qo'lida tarbiyalanayotganimdan, o'qib o'rganayotganimdan cheksiz shodman. Bugun mendan baxtli inson yo'q.

Poytaxt ko'chalarini aylanar ekanman, yuragimdan bir sado keladi va uni takror va takror aytaveraman: Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim! Ana shu go'zal diyorumizga munosib inson bo'lish, albatta, o'z qo'limizda.



ZUHRA olg'ar surat

OLMOS

«Bu buyuk insonning nomi yetti iqlimga ma'lum va mashhurdir. Mashriq ahli uni al-Farg'oni deb, Mag'rib ahli esa Alfraganus deb ulug'laydi».

Islom KARIMOV

«YER SHARINING BIRINCHI SUVRATI»

Ikkinchi maqola

Donojonning Ahmad Farg'oni bilan uchrashuvi

Donojon sho'x qo'shiqlarni eshitishni sevadi, xush ko'radi, ammo hozir radiodan dilbar qo'shiq yangrayotgan bo'lsa-da, eshitishga xohishi yo'q. Ahmad Farg'oni haqida o'qishi kerak. Donojon uyga kirib, javondagi kitoblarni qaray boshladi. Ammo bir qancha kitobni titib, olim haqida ma'lumot topolmadi.

Tashqaridan bolalarning: «Tep! Qattiqroq tep!», «Gol!!!» degan yangroq ovozlari baralla eshitildi. Bir lahza ko'chaga chiqib, koptok tepib kelgani yaxshimikin?! Lekin Donojon vaqtini qizg'andi. U katta ko'k kitobni qo'lga olib, varaqlay boshladi.

Beixtiyor ko'zi ilinganini sezmay qoldi.



1. SHOIRNING E'TIROFI

Osmonni qop-qora bulut qoplagan edi. «Uf-puf», dedi kimgir. Muloyim ovoz. Bulutlarning choki so'kilib, ikki nafar qariya uning qarshisida jilmaygancha qad rostladi. Ulardan biri dumaloq yuz, istarasi issiq oq soqolli, ikkinchisi, uzunchoq yuz, qirra burun, boshiga turra shaklidagi qalpoq kiygan kishi edi. Donojon darhol ularga salom bergan edi, mamnunlik bilan alik olishdi.

Dumaloq yuz qariya uning yelkasini siladi:

– Bolam, men Ahmad Farg'oni bobong, bu kishi esa buyuk italyan shoiri Dante Aligeri bo'ladi.

Shoir uning qarshisiga ohista cho'kdi:

– Donojon, ulug' ajdodlaring hayoti bilan qiziqayotganingni eshitib, Ahmad bobong bilan birga keldim. Gap shuki, men «Ilohiy komediya» degan asarimni yozayotganimda, ko'kni tasvirlashda Ahmad Farg'oni bobongning ilmi asoslangan edim.

– Men buni qaysi kitobdan topishim mumkin?

– Ahmad Farg'oni bobongning «Astronomiya asoslari haqida kitob»idan.

Donojon shoirga rahmat aytishni esdan chiqarmadi.

2. NIL DARYOSI MO'JIZASI

Donojon Ahmad Farg'oni bobosi haqida yanada ko'proq ma'lumotga ega bo'lish uchun andishani bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, savollar yog'dira boshladi:

– Siz ilm olish uchun uzoq-uzoqlarga ketib qolganiz-a?!

– Yo'q, bolam, dastlab men o'z yurtimda, shu yerda tahsil oldim. Lekin bilimimni mustahkamlash uchun dunyo olimlari bilan munozara qilishim kerak edi. Avval Marv shahriga bordim. 819-yilda barcha olimlar Bag'dodga ko'chirilib, «Bayt ul-hikma», ya'ni «Ilmlar uyi» ixtiyorimizga berildi. Bu yerda juda ko'p donishmandlar bilan birga ishladim. 840-yilda dunyo xaritasini yaratdik. U «Ma'mun dunyo xaritasi» nomi bilan shuhrat qozondi.

Bilimim tufayli har joyda izzat-hurmat ko'rdim. Misr davlati hukmdori chaqirib, Nil daryosi suv

sathini o'lchaydigan «Miqyos an-Nil»ni qaytadan qurishni buyurdi. Bu ishni juda mukammal poyoniga yetkazdik.

– U nima uchun kerak edi, bobojon?

– Adolat uchun kerak edi. Biz barpo etgan nilometr tufayli Misr aholisidan suv sathining ko'tarilishi va pasayishiga qarab soliq olina boshlandi.

Izoh:

Mazkur inshoot hozirda Misrda tarixiy yodgorlik sifatida saqlanib kelinmoqda.

3. ASARLARI QAYERDA?

«Al-Farg'oni jadvallari» asarining qo'lyozmasi – Hindistonda, «Oy Yerning ustida va ostida bo'lgan vaqtning aniqlash risolasi» qo'lyozmasi – Qohirada, «Usturlab bilan amal qilish haqidagi kitob»ini hind olimlari avaylab saqlab kelishmoqda.

4. DASTXAT

Ahmad Farg'oni yerning Yerning sharsimon shaklga egaligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yuz yil o'tib amalda isbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolomb: «Yer meridianining bir darajasi miqdori haqidagi al-Farg'oni hisoblarining to'g'riligiga to'la ishonch hosil qildim», degan dastxat qoldirdi.

5. USTURLOB NIMA?

Ahmad Farg'oni bilan shoir yana oppoq bulut ichiga kirib, g'oyib bo'lishdi. Donojon usturlab haqida eshitgan, ammo uning qanday asbob ekanligi to'g'risida to'liq ma'lumotga ega emasdi. Uyg'onib xomush o'tirgan edi, otasi ishdan kelib qoldi. Tezda o'rnidan turib, yuzini yuvib, salom bergach, yoniga o'tirdi-da, otasiga tushida ko'rganlarini birma-bir gapirib berdi.

– Demak, bobong sendan minnatdor, – dedi otasi. – Juda ko'p ma'lumot olibsan, bular haqida o'rtoqlaringga ham so'zlab ber!

– Otajon, usturlab haqida hech narsa bilmayman. O'rtoqlarim so'rab qolishsa, nima deyman?

– Unda men senga ertaga Ahmad as-Sag'oni haqida bir kitob keltirib beraman. O'shandan o'qib, o'rganib olasan!

Demak, aziz bolalar, keyingi sonda Donojon va siz bilan Ahmad as-Sag'oni haqida gaplashamiz.

To'lqin HAYIT,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

ULUG' AYYOMGA TARADDUD

Vatanimiz

mustaqilligining 23 yillik bayramoldi tadbirlari Farg'ona shahrida ham boshlab yuborilgan. Shahar xalq ta'limi bo'limi bilan «Kamolot» YOIH shahar Kengashi hamkorligida Ahmad al-Farg'oni nomi istirohat bog'ida «Vatan obodligi yo'lida birlashaylik» loyihasi doirasida «Yashil patrul» aksiyasi tashkil etildi.

Shahardagi 10 ta umumta'lim maktabining 5 – 8-sinf o'quvchilari ishtirok etgan mazkur aksiyada yoshlarning ekologik madaniyatini oshirish, atrof-muhitni asrab-avaylashga oid turli o'yinlar o'tkazildi.

Shuningdek, yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, milliy qadriyat va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida 28-umumta'lim maktabi o'quvchilarining viloyat O'lkashunoslik muzeyiga sayohati uyushtirilgan bo'lsa, Farg'ona shahar Mehribonlik uyida «Biz sog'lom bolalarimiz» mavzusida adabiy-musiqiy tadbir bo'lib o'tdi. «Kim topqir?», «O'ylab top!», «Kim chaqqon?», «Shar raqsi» kabi qiziqarli o'yin va bellashuvlarda faol ishtirok etgan bolajonlar yod olgan she'rlari, kuy va qo'shiqlari bilan tadbir ishtirokchilarida katta taassurot qoldirishdi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahri

MAKTABIMNI SOG'INDIM

Ta'tilni juda maroqli o'tkazayotgan bo'lsam-da, jonajon maktabimni, sevimli ustozlar va sho'x-shodon sinfdoshlarimni sog'indim



Maktabimizda

Zabira opa Qodirova,

Nargiza opa Aliyeva,

Kamol aka Aliyev, Dilfuza opa Ahmedova kabi jonkuyar muallimlar ko'p. Ayniqsa, birinchi ustozim Zabira opaning saboqlarini hech unutmayman.

Fizika faniga qiziqqanim bois, allaqachon yangi o'quv yilida foydalanadigan darsligimiz bilan tanishib chiqdim. Osmondagi yulduzlarni, tabiat hodisalarini haqidagi turli teleko'rsatuvlarni tomosha qilishni yaxshi ko'raman. Ta'til bizga sevimli mashg'ulotlarimiz bilan shug'ullanishga va navbatdagi o'quv yiliga tayyorlanishimizga imkon berdi. Bu imkoniyatdan esa barcha tengdoshlarim unumli foydalanishmoqda, deb o'ylayman.

Sherzod JAHONGIROV,

Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 50-umumta'lim maktabi o'quvchisi

31-avgust – Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni

Bir kuni bobom mendan «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyiga olib borishimni so'radilar.

ULAR DOIM YODIMIZDA

Muzeyga borganimizda, muzey xodimasi bizga Shahidlar xotirasi maydoni 2000-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan mustabid tuzum davrida qatag'onga uchragan minglab bobokalonlarimiz xotiralarini tiklash va abadiylashtirish maqsadida barpo etilganini, maydondagi moviy gumbaz ostidagi sag'ana toshi o'sha davrlarda nohaq ayblanib qatl qilingan, begona yurtlarga surgun qilingan yurtdoshlarimizning ramziy qabri sifatida o'rnatilgani haqida gapirib berdi.

Ayniqsa, sho'x-shodon oqadigan anhor ham bu yerdan o'tayotganida go'yo o'ygach, sokin oqib o'tishi meni lol qoldirdi. Bobojonimga bu haqda aytganimda, «Ha, bu yerda qanchadan-qancha odamlar qatl etilgan, bugun esa anhor atrofi obod bo'lib, kishi ko'zini quvnatadigan darajaga yetibdi-ya», dedilar. Men bobomning nega bunchalar horg'in kayfiyatda ekanliklarini tushunaman, chunki ularning bobolari ham bir paytlar katta yer egasi bo'lgani uchun, sovuq o'lkalarga surgun qilingan ekan.

Qatag'on qurbonlari xotirasiga yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatib, ramziy qabrga guldasta qo'ygach, bobom bilan uyga qaytdim va mustaqil yurtda ozod, shodon yashayotganimga shukronalar aytdim.

Odina SAHOBIDDIN qizi, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi



YANGI O'QUV YILI OLDIDAN

Aziz o'quvchilar! Har yili yangi o'quv yili oldidan ustozlarning an'anaviy avgust kengashi o'tkazilishi haqida eshitgansiz.

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi ko'rkamgina 20-umumta'lim maktabida, uslubchi Munira opa Tolipova boshchiligidagi o'tkazilgan tuman o'qituvchilarining avgust kengashiga tashrif buyurdik. Turli o'quv dargohlaridan kelgan fidoyilar Sizing yaxshi ta'lim olishingiz uchun yangi texnologiyalardan foydalangan holda qiziqarli dars o'tishga va kelajakda nafaqat bilimli mutaxassis, balki komil inson bo'lib yetishishingiz yo'lida tinmay izlanishga kelishib olishdi.

Tumandagi 314-umumta'lim maktabining geografiya fani o'qituvchisi Nazira opa G'afurovaning ham bugungi kengashdan olgan taassurotlari-yu, ertangi kunga rejalari talaygina ekan:

– Darslarni chuqur o'rgatishimizda fan to'garaklari ham yaxshi samara beradi. O'quv yilining birinchi oyi geografiya fani oyli ekanini menga yanada mas'uliyat yuklab, o'quvchilarimga bir-biridan qiziqarli, dars ishlanmasini tayyorlashga uddadi.

Yangi o'quv yilida sizlar ham ustozlarning mehnatlariga yarasha munosib o'quvchi bo'lasiz, degan umiddamiz.



Sayyora QODIROVA

El ichida «Bo'ladigan bola boshidan ma'lum» degan ibora bor. Bu bejiz emasligini besh yoshli Jahongirning sahnada she'rlarni jarangdor ovozda ifodali o'qishidan sezdik.

JAHONGIRNING NURLI JAHONI

Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida o'tkazilgan adabiyot kunlarida, yig'ilgan she'riyat shaydolarining quvonch to'la nigohidan dunyoda nazmga chanqoq kishilar bisyorligiga amin bo'ldik. O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning yoniga shaxdam qadamlar bilan chiqib borgan jajji Jahongir shoirga o'z maqsadini lo'nda qilib aytdi:

– Men ham she'r o'qiyman.
– Isming nima? – so'radi shoir.

– Jahongir...
– Zo'r-ku, yoshing nechada?
– Beshga kirdim.

– Qancha she'rni yoddan bilasan?
– Qirq ikkita...

– Hali maktabga bormagan bo'lsang, buncha she'rni qanday yoddading?



5 yoshli Jahongir 42 ta she'rni yoddan biladi

– Akam Yodgor beshinchi sinfda o'qiydi. U menga o'rgatdi.

Shoir qo'lidagi mikrofonni jajji she'rxonga uzatib dedi:

– Bugungi yoshlar istiqolimizning totli mevalaridir. Yurtboshimizning «Sog'lom bola yili» munosabati bilan so'zlagan nutqi hamda bugungi kunda olib borilayotgan ezgu ishlar zamirida millionlab Jahongirlar kelajagi ko'zda tutilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi...

Ha, chindan ham shoirimiz ta'kidlaganidek, biz farzandlarimizning kelajakda zakovatli, chuqur bilim egalari bo'lishiga ishonamiz va shu o'rinda Jahongirning nurli jahoniga ko'z tegmasin, degimiz keladi.

A. KARIMOV

RIZQIMIZ YERDAN UNAR

Biz istiqomat qiladigan «Mahkam bog'i» bog'dorchilik shirkati xo'jaligida ajoyib dehqonchilik namunalarini ko'rish mumkin. Ayniqsa, rezavor mevalar pishgan pallada bog'larimizni ularning xush bo'yi tutib ketadi. Chunki har bir hovlida ushbu meva butalarini uchratishingiz aniq.

Qo'shnilarimiz asosan, shahardan kelishgan bo'lib, yozgi dala hovli uchun yer olgan havaskor bog'bonlardir. Ular mevali daraxtlar o'tqazishgan, hovlilarida anvoyi gullar yetishtirishni xush ko'rishadi.



Yozgi ta'tilda men tomorqamizdagi ekin ishlarida kattalarga yordamlashdim. Ishlov berilgan yerga kuzgi kartoshka, sabzi, turp ekkidim. Men ota-onamning og'irini yengil qilish niyatida ularga qarashar ekanman, dehqonchilik sirlarini ham o'rgana boshladim. Parvarishlagan ekinlarimizning hosili mo'ljali bo'lishiga ishonaman.

Tushundimki, hosilning ko'p bo'lishiga asosan, yerga mehr berilgani sabab bo'larkan. Dadam doimo «Insonning rizqi hamisha Ona yerdan unadi», deydi.


«Dasturxonimizda o'zimiz yetishtirgan meva va sabzavotlarimiz bo'lsa, qanday yaxshi», deydi onam.

Zokir TURSUNOV, Toshkent viloyati, Quyi Chirchiq tumanidagi 44-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

SPIDERGRAM

(Mantiqiy o'yin)

Complete these spidergrams correctly and use these words: traffic, a joke, a lesson, coffee, sleep, the truth, a person, a bus, the situation, rain, accent.



SHORT STORY ABOUT TEA

(Choy haqida kichik hikoya)

Many years ago people didn't know anything about tea. They were afraid of drinking it. There lived a king and he was very inquisitive, he always tried to invent something new. One day he decided to taste tea but he didn't want to taste it himself. There was a boy in the kingdom, and he was very poor. The king promised him gold if he tasted tea. He agreed and drank untested liquid and he liked it very much. He lived happily ever

after. Then the king gave him gold. Having seen still healthy boy the king tasted that drink himself. He liked it and allowed to other people to drink. And since that tea became very popular




New words:
Inquisitive – qiziquvchan
Invent – kashf qilmoq
Taste – tatib ko'rish
Promise – va'da bermoq
Liquid – suyuqlik
Allow – ruxsat bermoq
Image – tasavvur qilmoq

drink and now no one can imagine his life without it.

CROSSWORD

Find the capital of these countries: 1. Great Britain, 2. South Korea, 3. China, 4. Brazil, 5. Egypt, 6. Germany, 7. Mexico, 8. Uzbekistan, 9. Australia, 10. Italy.



INDEPENDENCE

Muxtor XUDOYQULOV



Independence –
It's freedom, liberty,
It's free life
And warm heart.

Independence –
It's ground, water,
It's peace and
Abundance.

Independence –
It's open heartedness
And all nations
Friendly equalities.

D. HAMIDULLA qizi tarjimasi

DIALOGUE

In the Independence square
(Mustaqillik maydonida)

Doniyor: Hello, Sardor. How are you?

Sardor: Hi, thanks fine and you?

D: Nice, what are you doing here?

S: I'm walking with my brother along Independence square, it is very beautiful here.

D: Yes, of course. You know, from this beauty I wrote an essay in the theme «My ancient and great city Tashkent» and won in the election.

S: Ohh congratulations, it was a great work! Doniyor I also want to write a poem about the beauty of our country. Thank you Doniyor, see you.

D: Ok, Sardor good luck.



IT IS INTERESTING...

(Bu qiziq...)

In time or On time ...?

Time so'zi ikki xil predlog bilan ishlatiladi, lekin har ikkalasi turfa ma'noda qo'llaniladi:



Lessons begin at 8.30 and I always arrive on time. (at 8.30)

Lessons begin at 8.30 and I always get there in time. (before 8.30; earlier)



TONGUE TWISTERS

(Tez aytishlar)

Bobur and Bakhrom brought back blue balloons from the big bazaar.

I slit the sheet, the sheet I slit, and on the slitted sheet I sit.

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

VATAN NI KUYLASH BAXTI

Vatan tuyg'usini dildan his etib, ijod qilish baxti har kimga ham nasib qilavermaydi. Tug'ilib o'sgan tuprog'ining behaloligini tarannum aylash sharafli burch ekanini anglagan havasmand ijodkorlarimizning ko'ngil bo'stonida sayr etib, ona yurtning ochilmagan noyob qirralarini kashf etgandek bo'lamiz. Quyyosh har tong olamga zarrin nurlarini sochib borliqqa parvona kezganida, ko'nglimiz

yorishadi. Vatanni madh etish ijod aholidan qanchalar yuksak mahorat talab etishini, tabarruk zaminimizning bizga hadya etayotgan bebaho ne'matlarini dasturxonimizga sochqilab turganida his etamiz. Quvnoq o'g'il-qizlarimizning ziyrak nigohida yurtga bo'lgan behisob mehr-muhabbat qalqib turganidan qalbimiz faxr-iftixorga to'ladi.

AXTAMQULI



O'ZBEKISTONIM



Onamday mehribonim,
Fido senga bu jonim.
Ko'zim ochib ko'rganim,
Go'zal O'zbekistonim.

Quchog'ingda yayraymiz,
Bulbul kabi sayraymiz.
Sho'xligimiz qo'ymaymiz,
Jamolingga to'ymaymiz.

Butun dunyo tanidi,
Sening ulug' nomingni.
Oqlagaymiz, albatta,
Bergan tuz-u noningni.



ANDIJONIM, SENGA JONIM

Sening noming elda doston,
Chamaniston, gul-u bo'ston.
Onam kabi mehribonim,
Andijonim, senga jonim.

Men bag'ringda topdim kamol,
Betakror bu husn-u jamol.
Ta'rifingga lol zabonim,
Andijonim, senga jonim.

Ko'zga surtgum tuprog'ingni,
Asragayman hur bog'ingni.
Oqlagayman totgan nonim,
Andijonim, senga jonim.

Muhammadali RAYIMJONOV,
Andijon viloyati, Marhamat
tumanidagi 8-umumta'lim
maktabining 6-sinf o'quvchisi



Yulduz ABDALYOZOVA,
Xorazm viloyati, Urganch
tumanidagi 43-umumta'lim
maktabining 5-sinf o'quvchisi

NABIRAMGA

Bolam - bolim,
Baxt-iqbolim.
Mehrim jo'shar -
Qalbim lim-lim.

Boshing silab,
Umring tilab.
Duodaman
Seni qo'llab.

Bo'lg'in omon,
Joningga jon.
Noming elga
Bo'lsin doston.

Topgin kamol,
Ko'rmay zavol.
Yurt tayanchi
Ey navnihol.

Qilib mehnat,
Topgin rohat.
Ilm o'rgan
Qilib toqat.

Sen umidim,
Toza gulim.
Kelajagim -
Tong yulduzim.

Abdulboriy ZIYODOV



ISTIQLOL YOR BO'LSIN

Onani ulug'lang, onalar aziz,
Vatan ham onadek muqaddas erur.
Bizga ozodlikni ato aylagan,
Shunday ulug' kunga ming bora shukur.
Ona, Vatan so'zi jarangdor bo'lsin,
Istiqlol bizlarga mangu yor bo'lsin.



Elbek USMONOV,
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi
327-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi

Miraziz A'ZAM

ONA YURTIM - OLTIN BESHIGIM


Yangi tug'ilgan chaqaloq
beshikka solinadi. Buni
hammamiz ko'rganmiz,
to'g'rimi?

Yig'lab turgan bola beshikka yotgan zahoti shundoq tepasida uzun to'sinni ko'radi, bo'g'im-bo'g'im, sariq, qizil, yashil, oq, qo'ng'ir... Bo'g'imlar orasiga turli rangdagi yog'och halqalar osilgan. Beshik tebranishi bilan halqalar ham qimirlaydi. Bola o'zini xuddi jim-jim go'zal bir joyda yotganday his qiladi. Shirin uyquga ketadi. Tush ko'radi, tushida yana o'sha go'zal joy. Jilmayadi. Bu joy unga juda katta ko'rinadi.

Bola yurib ketganda oldin uy ichi, so'ngra hovillari juda katta, chiroyli

ko'rinadi. Keyin ko'chalar, yo'llar, ariqlar, suvlar, gullar, daraxtlar, o'ziga o'xshagan bolalar, yong'oq o'yinlari, bekinmachoqlar - hammasi ko'zlariga chiroyli ko'rinadi, esidan chiqmaydigan bo'lib qoladi.

Yetti yoshga to'lib maktabga borganda o'zi yashayotgan tumanni, maktabni, butun shaharni, ona yurtini taniydi. O'zbekiston degan boy va chiroyli mamlakatning egasi o'zi ekanligi bilan faxrlanib, uni sevib qoladi. Bu sevgi beshikdan boshlanganini angelaydi. «Ona yurtim - oltin beshigim», deb bekorga aytilmagan ekan-da, deb o'ylaydi.



NIHOL

Bog'da baquvvat daraxt o'sar ekan. Uning yonida yoshgina niholcha ham bo'y ko'rsata boshlabdi. Ular har kuni suhbat qurisharkan.

- Mening shoxlarim baquvvat, mevalarim serhosil bo'ldi, o'tganlarning ko'zini qamashtiryapti. Sen hali juda yoshsan. Qachon katta bo'lasan-u, mendek meva berasan, deb uni doimo xafa qilardikan. Yosh nihol kattakon daraxtning so'zlaridan dili og'risa-da, kattaga bo'lgan hurmat

yuzasidan biron so'z demas ekan.

Oradan yillar o'tib, yosh nihol ham daraxtga aylanibdi. Aatrofidagi daraxtlar unga havas bilan qaraydigan bo'lishibdi.

Bir kuni o'tinchilar kelib qarigan, tanasi kovak daraxtlarni arrayay boshlashibdi. Ular orasida bir paytlar yosh niholni mazax qilgan daraxt ham bor ekan. Bu voqea esa boshqa daraxtlarga ham o'mak bo'libdi.

Gavharoy RIXSIBOYEVA,
Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi
12-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

TADBIR DAVOM ETADI

— Musobaqada oilaviy qatnashish yanada qiziqarli bo'lar ekan, — deydi G'allaorol tumanidagi 73-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Azamat Ahmedov.

Qizg'in bahslarga boy bellashuvda yugurish, akrobatika elementlari, to'pni nishonga otish kabi shartlardan so'ng «Chaqqonlik va merganlik» estafetasi, «Mohir hujumchi», «Ovchilar va quyonlar» o'yinlari, ko'pkurash bahslari o'tkazildi. Olimjon aka va Sohila Zokirova farzandi Azamat kabi o'z epcilliklarini namoyish etib, «Eng chaqqon oila» nominatsiyasining g'olibiga aylanishdi.

Shuningdek, tumandagi 62-umumta'lim maktabi o'qituvchilari Abdurasul aka va Nazira opa ham qizi, 3-sinf o'quvchisi Sevinch Abdujabborova bilan birgalikda yuqori natijani qo'lga kiritishdi. 25-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Alisher Quvondiqov, 45-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi Bunyodbek Imoddinov ham ota-onasi bilan birgalikda yaxshi natijalar ko'rsatishdi.

Yakka tartibdagi musobaqalarda esa Salima Ashurova, Mohira Abdullayeva, Jasur Tursunov sovrinlarga ega bo'lishdi. «Sog'lom oila» shiori ostida tashkil etilgan ushbu tadbir doirasida, shuningdek, turli viktorina va davra suhbatlari ham bo'lib o'tmoqda.

Abdulla SAIDOV,
Jizzax viloyati, G'allaorol tumani



Xitoyning Nankin shahrida davom etayotgan o'smirlar o'rtasidagi II yozgi Olimpiada o'yinlari qizg'in pallaga kirdi.

NANKIN OLIMPIADASIDAN DASTLABKI MEDALLAR

NANJING
2014
YOUTH OLYMPIC GAMES

Dunyoning 200 dan ortiq davlatidan 4 mingga yaqin sportchi ishtirok etayotgan nufuzli musobaqada 28 nafar olimpiyachimiz sportning 14 turi bo'yicha o'tkazilayotgan bahslarda Vatanimiz sharafini munosib himoya qilishmoqda. Buni nufuzli musobaqaning birinchi kuniyozgi ikki nafar hamyurtimizning sovrindorlar safidan joy olganida ham ko'rish mumkin.

O'zbekiston sport delegatsiyasi hisobiga dastlabki bronza medalini vazni 66 kilogrammgacha bo'lgan dzyudochilar bahsida ishtirok etgan Suhrob Tursunov qo'lga kiritgan bo'lsa, navbatdagi bronza medali bilan og'ir atletikachimiz Adhamjon Ergashev taqdirlandi. Vazni 56 kilogrammgacha bo'lgan sportchilar musobaqasida qatnashgan hamyurtimiz dast ko'tarishda 110 kg., siltab ko'tarishda 133 kg. toshni o'ziga bo'ysundirdi va ikkikurash yakuniga ko'ra, 243 kg. natija bilan sovrindorlar qatoridan joy oldi.

Eng quvonarlisi, delegatsiyamiz hisobiga ilk oltin medalni Vladimir Svechnikov 10 metr masofadan to'pponchadan o'q otish bo'yicha mikst musobaqalarida qo'lga kiritdi va Olimpiada chempioni nomiga sazovor bo'ldi.

Nankin shahridan kelgan yana bir quvonchli xushxabar. Taekvando bo'yicha qizlar o'rtasida o'tkazilayotgan musobaqalarda Vatanimiz sharafini himoya qilayotgan umidli yosh sportchimiz Umida Abdullayevaning (+63 kg) chorak finalda Svazeland vakili Sharlotta Munavi ustidan yirik 17:2 hisobidagi g'alabasi alohida e'tirofga munosib.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mamlakatimiz sport delegatsiyasi a'zolari 1 ta oltin va 2 ta bronza medali bilan 204 davlat orasida umumjamoa hisobida 27-o'rinni egallab turishgan bo'lsa, medallarni qo'lga kiritish borasida Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi o'rinda bormoqda.

Jamshid KAMOL



SPORTGA OSHNO

Saidmurod aka va Albina opa xonadonida to'ng'ich farzand Elvira dunyoga kelganida, oila a'zolari cheksiz quvonishdi.

Otasi qizining sog'lom va tetik bo'lib ulg'ayishi uchun 6 yoshida uni Samarqand viloyati, Ishtixon tumanidagi 4-umumta'lim maktabi qoshida ochilgan karate to'garagiga olib bordi. Tez orada tirishqoq Elvira bir qator yutuqlarni qo'lga kiritdi.

U dastlab, 2006-yili Samarqand shahrida «Oyama Kiokushinkay-kan» karate-do sport klubida o'tkazilgan do'stlik uchrashuvida II o'rinni egallab, diplom bilan taqdirlandi. Yaqinda umidli sportchi Samarqand shahrida o'smirlar va yoshlar o'rtasida «Sog'lom bola yili»ga bag'ishlab o'tkazilgan musobaqada ham faxrli II o'rinni egallab, yaqinlari ishonchini oqladi. O'z ustida tinmay izlangan yosh sportchi dastlab qizil, keyin esa ko'k belbog' sohibasiga aylandi.

Hozirda Kompyuter texnologiyalari kollejining jismoniy tarbiya bo'limida tahsil olayotgan Elviraning kelajakdagi orzulari bisyor. Biz esa unga omad yor bo'lishini tilab qolamiz.

Xonibi MAHAMOVA

Termiz shahrida «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» shiori ostida qizlar o'rtasida sportning badiiy gimnastika turi bo'yicha mamlakat birinchiligi bahslari bo'lib o'tdi.

MALIKALAR BELLASHUVI

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda Prezidentimiz tashabbusi va rahnamoligidagi sport, xususan, xotin-qizlar va bolalar sportini rivojlantirish, ularni sportga keng jalb etish, salomatligini mustahkamlash yuzasidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar yuksak samaralar berayotgani ta'kidlandi.

Mamlakatimizda sportning boshqa turlari qatori badiiy gimnastika ham keng rivojlanmoqda. O'ltirdan qishloqlardagi bolalar sporti inshootlari, umumta'lim maktablari va maktabgacha ta'lim muassasalarida ham mazkur sport turi to'garaklari tashkil etilayotir. Badiiy gimnastika bilan muntazam shug'ullanish qizlarning qaddiqomatini to'g'ri shakllantirish, salomatligini asrash bilan birga, ularda iroda va o'ziga ishonch tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Qiziqarli o'tgan bahslarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan

kelgan 14-15 yoshli qizlar o'z mahoratini namoyish etdi. Umumjamoa hisobida Toshkent shahri sportchilari birinchi, samarqandliklar ikkinchi va Buxoro viloyati badiiy gimnastikachilari uchinchi o'rinni egalladi.



CHEMPIONLAR MAKTABI

Navoiy viloyati, Navbahor tumanidagi 9-bolalar va o'smirlar sport maktabida ming nafarga yaqin yoshlar sportning kurash, boks, badiiy gimnastika, futbol, qo'l to'pi, stol tenisi, voleybol turlari bilan muntazam shug'ullanmoqda.

Yangi jihozlar bilan ta'minlangan sport maktabida barcha zamonaviy sharoitlar yaratilgan. O'ttirdan ziyod malakali murabbiylar ko'magida mahorat oshirayotgan yosh sportchilar turli musobaqalarda munosib ishtirok etib kelmoqda. Ayni paytgacha maktab tarbiyalanuvchilari respublika va xalqaro bellashuvlarda 13 oltin, 10 kumush va 45 bronza medalini qo'lga kiritgan.

Shoh MUHAMMAD

MUQADDAS DIYOR MADHI

Eng ulug' va eng aziz bayramimiz yaqinlashgan sari «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» an'anaviy respublika tanlovida ishtirok etishga oshiqayotgan o'quvchilar soni tobora ortib bormoqda.

Ayniqsa, Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 15-umumta'lim maktabi o'quvchilari mazkur tanlovda yanada faol ishtirok etishga harakat qilishmoqda. Jumladan, 4-sinf o'quvchilari Yulduzxon Botirova, Muhiddin Bekturdiyev, Shomurod Nurmetov, Asadbek Sultonov, Ravshan Xudoynazarov, 6-sinf o'quvchilari Sayyora Davletova, Temirxon Jabborov chizgan rasmlarida ona yurtga, muqaddas zamanga bo'lgan ulug' va pok muhabbatlarini ifodalashgan. **ZUHRA**



Yulduzxon BOTIROVA

Sayyora DAVLETOVA

Shomurod NURMETOV



Madina ERKAYEVA, Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 26-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi

«KALINOTA» SAYI QUYOSH NECHA YOSHDA?

Bizga eng yaqin yulduz – Quyosh. Yerdan u yorqin sariq doira bo'lib ko'rinadi. Quyosh sababli sayyoramizda hayot mavjud. Quyosh – bu juda yuqori haroratdagi gaz sharidan iborat. Bilasizmi, Quyoshdan taralayotgan yorug'lik yerga 8 daqiqada yetib kelar ekan. Agar qiyoslab ko'rilsa, tarozining bir pallasiga Quyoshni qo'yish mumkin bo'lganda, ikkinchi pallasiga



yer kabi 333 mingta sayyorani qo'yishga to'g'ri kelar edi. Quyosh o'z tizimidagi barcha sayyoralarning umumiy massasidan 750 barobar kattadir. Shuning uchun ham u o'zining barcha yo'l-doshlaridan ancha katta va og'irdir. Quyosh o'z yo'l-doshlarini tortish kuchi bilan ushlab turadi. Ma'lumotlarga ko'ra, ona zaminimizdan Quyoshgacha bo'lgan masofa 150 million kilometrni tashkil etadi. Quyosh ham o'z o'qi atrofida aylanadi. Xo'sh, Quyosh necha yoshda? Mutaxassislar aytishicha, Quyosh yosh yulduz hisoblanib, u endi «bor-yo'g'i» 5 milliard yoshga to'libdi.

Nigora JO'RAYEVA tayyorladi

JOHIVORLAR OLAMI O'RDAK



Ma'lumotlarga qaraganda, o'rdaksimonlar oilasiga mansub bu parranda miloddan uch ming yil avval janubi-sharqiy Osiyoda

xonakilashtirilgan ekan. Mamlakatimizda uning oq, kulrang va oq ko'krakli qora zotlari keng tarqalgan. Shuningdek, Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon, Surxondaryo bo'ylarida yovvoyi o'rdaklarni ham uchratish mumkin.

O'rdak sayoz suvlarda kun kechiradi, goh-goh suvga sho'ng'ib, yapaloq tumshug'i bilan suv osti mayda jonzoatlari bilan oziqlanadi.

O'rdak dumg'aza bezlari ajratib chiqaradigan yog'simon suyuqlikni tumshug'i bilan siqib olib, patlariga surtib turadi. Bu suyuqlik uning patlariga suv yuqtirmaydi, ularni qayishqoq va egiluvchan qiladi. O'rdakning oyoqlari biroq orqaroq joylashgan bo'lib, panjalari orasiga suzuvchi parda tortilgani bois suvda yaxshi suzadi.

Ona o'rdak erta bahorda sakkiztadan o'n bittagacha tuxum qo'yadi. Tuxumining vazni 90 grammgacha bo'ladi. Yangi ochib chiqqan jo'jalari esa hali patlari qurib ulgurmasdan yugura boshlaydi, suvga sho'ng'iydi. Jo'jalar ona o'rdakning ketidan xuddi ipga tizilganday yurishlarini multfilmlarda ham ko'rgansiz.

ZUBAYDA tayyorladi



OLXO'RI

Olxo'ri mevasi tarkibida 7-15 foiz qand, oqsil, organik kislotalar, reptin, rang beruvchi moddalar, mineral elementlardan kobalt, temir, mis, kaliy, manganetslar bor. Bulardan tashqari, olxo'ri mevasida S va B vitaminlari mavjud. Uning shifobaxsh xususiyatlari qadimdan xalq tabobatida qo'llanib kelinadi. U ishtahani ochadi, ichak faoliyatini uyg'unlashtiradi, ovqatni yaxshi hazm qildiradi.

Buyuk alloma Abu Ali ibn Sino olxo'ri shifobaxsh xususiyati haqida shunday ta'rif bergan: Uning oziqligi ozdir, sirka bilan qo'shilgani so'g'ali yo'qotadi. Ko'krakdagi og'riqlarni yo'q qiladi. Xalq tabobatida olxo'ri yordamida qabziyat, jigar, o't pufagi, isitma, revmatizm kabi kasalliklarni davolanadi. Uning achchiq xili safroni haydaydi. Nafaqat olxo'ri o'zi, balki uning danagi bilan ham turli kasalliklarni davolasa bo'lar ekan. Olxo'ri tarkibida S, B, B₆, Ye, PP turdagi vitaminlar mavjud. Olxo'ri murabossi hamda undan tayyorlangan sharbat ham xushta'mligi bilan inson organizmiga xush yoqadi.

Ona zamin ne'matlari

Manzura UBAYDULLAYEVA

Gazetamizning 33-sonida berilgan «HAMMASI «S» HARFI BILAN» boshqotirmasining javobi: s, si, suv, soat, sambo, sardor, sinonim, sabzavot, Samarqand, Surxondaryo.

8

25-avgust 2014

Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinishi),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib),
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi
muharrir
Axtamqul
KARIMOV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'gli

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 30108
Buyurtma – S 721